

SPORT TERMINLARINI TARJIMA QILISHDA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR

Baltayeva Iqbol Tadjibayevna

*O'zDJTSU O'zbek va chet tillari kafedrası
professori, filologiya fanlari doktori(DSc).*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sport terminlarini tarjima qilishda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, xalqaro sport terminologiyasining o'zbek tiliga moslashtirilish jarayonlari hamda sport tarjimashunosligining dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Sport terminlarini tarjima qilishda ekvivalentlik, semantik moslik, kommunikativ yondashuv va madaniy omillar masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ayrim sport turlariga oid terminlarning tarjima xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *sport terminologiyasi, sport tarjimasi, zamonaviy yondashuvlar, ekvivalentlik, semantik tarjima, transliteratsiya, kalkalash, kommunikativ tarjima, sport lingvistikasi, xalqaro terminlar, sport atamalari.*

Bugungi globallashuv sharoitida sport sohasi xalqaro kommunikatsiyaning eng faol yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro musobaqalar, Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari hamda sport ommaviy axborot vositalari orqali turli tillardagi sport terminlari keng tarqalmoqda. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro sport tili sifatida ustunligi sport terminologiyasining boshqa tillarga faol kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Sport terminlarini tarjima qilish zamonaviy tarjimashunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki sport matnlari nafaqat axborot yetkazish, balki emotsional ta'sir ko'rsatish, tezkorlik va aniqlikni ta'minlash vazifasini ham bajaradi. Shu sababli sport terminlarini tarjima qilishda oddiy so'zma-so'z tarjima yetarli bo'lmaydi. Tarjimon sport sohasi, terminologiya va madaniy kontekstni chuqur bilishi kerak. Mazkur ishda sport terminlarini tarjima qilishda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, tarjima prinsiplari hamda sport terminologiyasining lingvistik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Sport terminologiyasi tilshunoslikning maxsus terminologik tizimlaridan biri hisoblanadi. Sport terminlari sport faoliyati, musobaqalar, qoidalar, texnik usullar va sport anjomlariga oid tushunchalarni ifodalaydi.

Sport terminlari quyidagi xususiyatlarga ega: aniqlik, qisqalik, xalqaro xarakter, professional qo'llanish, dinamik rivojlanish.

Sport terminologiyasining asosiy qismi ingliz tilidan o'zlashgan. Masalan:

Goal, penalty, offside, dribbling, sprint, knockout. Mazkur terminlarning ko'pchiligi xalqaro xarakterga ega bo'lib, turli tillarda deyarli o'zgarmagan holda qo'llanadi.

Sport terminlari quyidagi guruhlariga bo'linadi: milliy terminlar, xalqaro terminlar, o'zlashma terminlar, qisqartma terminlar, aralash terminlar.

Masalan, “darvozabon”, “hakam”, “musobaqa” milliy terminlar bo’lsa, “futbol”, “basketbol”, “marafon” xalqaro terminlardir.

Zamonaviy tarjimashunoslikda sport terminlarini tarjima qilishda bir nechta yondashuvlar qo’llaniladi. Shulardan birinchisi: kommunikativ yondashuv bo’lib, bunda terminning asosiy maqsadi auditoriyaga tushunarli va tezkor axborot yetkazishdan iborat bo’ladi. Sport sharhlarida aynan shu yondashuv muhim hisoblanadi. Masalan: Counterattack – qarshi hujum Free kick – jarima to’pi, Yellow card – sariq kartochka. Mazkur tarjimalar sport muxlislariga tushunarli bo’lishi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchisi, semantik yondashuv bo’lib, bunda maqsad terminning ma’nosini maksimal darajada saqlashga asoslanadi. Masalan: Goalkeeper – darvozabon, referee – hakam, Midfielder – yarim himoyachi Bu usul terminning mazmunini aniq ifodalash imkonini beradi.

Uchinchidan, lingvokulturologik yondashuv asosida o’rganish mumkin. Chunki sport terminlari muayyan xalqning madaniyati bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Shu sababli tarjimada madaniy omillar hisobga olinadi. Masalan, Amerika futboliga oid ayrim terminlarni o’zbek tiliga tarjima qilishda qo’shimcha izoh talab etiladi.

To’rtinchidan, funksional yondashuv asosida o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvda terminning sport matnidagi vazifasi asosiy o’rinda turadi. Sport sharhlari, rasmiy hujjatlar va jurnalistik matnlarda terminlar turlicha tarjima qilinishi mumkin. Masalan: coach – murabbiy; trainer – trener.

Hamda beshinchidan, adaptatsion yondashuv farqlanadi. Xalqaro terminlarni milliy til me’yorlariga moslashtirish adaptatsion yondashuv asosida amalga oshiriladi. Misollar: football – futbol; volleyball – voleybol; basketball – basketbol.

Bu usul terminning talaffuzini o’zbek tiliga moslashtirishga xizmat qiladi.

Sport terminlarini tarjima qilishning ham bir necha usullari bo’lib, transliteratsiya usulida tarjimada terminning tovush shakli saqlanadi: sprint, marafon, futbol kabi.

Keyingisi kalkalash usuli bo’lib, bunda termin tarkibiy qismlarga ajratilib tarjima qilinadi. Masalan, free kick – jarima to’pi, goalkeeper – darvozabon, long jump – uzunlikka sakrash.

Semantik tarjimada termin ma’nosi saqlangan holda tarjima qilinadi: referee – hakam, coach – murabbiy.

So’nggi tarjima usuli aralash tarjima bo’lib, bunda terminning bir qismi tarjima qilinadi. Masalan, video assistant referee – video yordamchi hakam, mini football – mini futbol kabi.

Bugungi kunda sport terminlarini tarjima qilishda quyidagi muammolar kuzatiladi:

Birinchidan, terminning tarjima qilinayotgan tilga ekvivalent muammosi.

Ba’zi sport terminlarining o’zbek tilida aniq muqobili mavjud emas. Masalan: play-off, tie-break, dribbling kabi. Bunday hollarda transliteratsiya qo’llanadi.

Ikkinchidan, ayrim terminlar sport turiga qarab turlicha ma’no anglatadi.

Ya’ni, ko’p ma’nolilik hodisasi. Masalan: set, block, pass kabi terminlar bir necha ma’no anglatadi.

Keyingi muammo qisqartmalar tarjimasida kuzatiladi. Chunki ko'plab sport matnlarida qisqartmalar uchraydi: FIFA, IOC, VAR kabi. Qisqartmalarni tarjima qilishda xalqaro shakl va milliy tushuntirish uyg'unligi saqlanishi kerak.

Eng muhimlaridan so'ngisi tezkorlik muammosi. Sport sharhlovchilari terminlarni tez va qisqa shaklda qo'llashlari kerak. Masalan: substitution – almashtirish, timeout – tanaffus.

Bugungi kunda sport terminlarini tarjima qilishda elektron lug'atlar va internet manbalari muhim rol o'ynaydi. Bunda quyidagi manbalar keng qo'llaniladi: Cambridge Dictionary, Oxford Learner's Dictionary, ABBYY Lingvo, Multitran, FIFA rasmiy sayti, Olimpiya qo'mitasi portal, Elektron manbalarning afzalliklari. Shuningdek, tezkor yangilanish, yangi terminlarni qamrab olishi, talaffuz namunalarining mavjudligi, xalqaro standartlarga mosligi ahamiyatlidir.

O'zbek sport terminologiyasini rivojlantirish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Yangi sport turlarining paydo bo'lishi yangi terminlarga ehtiyojni oshirmoqda. Shu tufayli bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi: yagona terminologik standart yaratish, sport terminlari lug'atlarini boyitish, sport sharhlovchilari malakasini oshirish, elektron terminologik bazalarni yaratish, sport tarjimashunosligini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, sport terminlarini tarjima qilish zamonaviy tarjimashunoslikning muhim va murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sport terminlarini tarjima qilishda kommunikativ, semantik, funksional va lingvokulturologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Xalqaro sport terminlarini o'zbek tiliga moslashtirishda transliteratsiya, kalkalash, semantik va aralash tarjima usullari keng qo'llanadi. Sport terminlarini tarjima qilishdagi asosiy muammolar ekvivalentning yo'qligi, ko'p ma'nolilik, madaniy farqlar va qisqartmalar bilan bog'liqdir. Kelajakda o'zbek sport terminologiyasini yanada boyitish, zamonaviy elektron lug'atlar yaratish hamda sport tarjimashunosligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'RQ-1123-sonli "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent sh., 2026-yil 24-mart. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.03.2026-y., 03/26/1123/0271-son)
2. Komissarov V. N. Tarjima nazariyasi. – Moskva, 1990.
3. Reformatskiy A. A. Terminologiya asoslari. – Moskva, 1961.
4. Vinogradov V. S. Tarjima nazariyasiga kirish. – Moskva, 2001.
5. G'afforov. N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. Monografiya. "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildlik). - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.

7. Baltayeva. I.T. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati. O'quv qo'llanma. Toshkent, "LESSON PRESS". 2020.